

O'qituvchi va murabbiylar  
kuniga bag'ishlangan bayram  
tadbiri

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida 1-oktabr-  
O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tadbir bo'lib  
o'tdi.

Bayram tadbiri institut faoliyati, uning taraqqiyoti, yosh avlodni tarbiyalashda faollik ko'rsatgan ustozlar haqidagi videorolik bilan boshlandi.

Bayram tadbirida institut rektori Ibrohim Yo'ldoshev so'zga chiqib, ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar, erishilgan yutuqlar, so'nggi yillarda institut professor-o'qituvchilarining zahmatli mehnatlari natijasida barcha fanlar bo'yicha yaratilgan darsliklar, o'quv qo'llanmalarini aloha e'tirof etdi.

Aytish joizki, institut rektori Ibrohim Yo'ldoshevning tashabbusi bilan Talabalar turar joyida ulkan ishlar amalga oshirildi.

Talabalarga yanada qulayliklar yaratish maqsadida yotoqxonaga yangi kir yuvish mashinalari, zamonaviy dazmollar, muzlatgichlar olib berildi.

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori  
Ibrohim Yo'ldoshev institut jamoasini O'qituvchi va  
murabbiylar kuni bilan muborakbod etdi.









Bayram tadbirida 1-oktabr-O'qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan ta'lim tizimi taraqqiyoti , yoshlarning komil insonlar bo'lib yetishishi uchun sidqidildan, vijdonan faoliyat olib borayotgan professor-o'qituvchilar pul mukofoti bilan taqdirlandi.

Shuningdek, ko'p yillar mehnat qilib kelayotgan,70 yoshdan oshgan faxriylar, xodimlarga qimmatbaho sovg'alar ulashildi.













Bundan tashqari institut vakillari samarali hamda ko'p yillik mehnati uchun Oliy va o'rta-maxsus talim vazirligining faxriy yorlig'i bilan taqdirlandi.













Shundan keyin “Ziyolaring sarchashmasi so‘nmasin, ustoz!” , - deb nomlangan konsert dasturi boshlandi. Bayram dasturida barcha kuch, iste‘dodini ishga solib yoshlarga tarbiya berayotgan ustozlar sha’niga iliq so‘zlar aytildi, she’rlar o‘qildi.











Institut talabalari, professor-o'qituvchilari tomondan baland pardalarda qo'shiqlar aytildi, milliy kuylar ijro qilindi. Barcha chiqishlarda ustoz, murabbiylar yana bir bora ulug'landi.